



THE IMPACT OF MEDIA AND SOCIAL NETWORKS ON THE FORMATION OF YOUTH WORLDVIEW

Vaisbay Bakhtiyarovich Madrakhimov

Independent Researcher, National University of Uzbekistan

Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor

E-mail: mvaisbay@gmail.com

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: media, youth worldview, digital psychology, global culture, social networks, identity, misinformation.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the impact of media and social networks on shaping youth worldview in the era of globalization and digitalization. It examines theoretical perspectives from Eastern and Western scholars, cognitive and psychological mechanisms of media influence, and the transformative role of visual imagery, digital narratives, and social media algorithms. The study analyzes both positive and negative effects of media on youth identity, moral values, cultural orientation, and social behavior. Special attention is given to issues of misinformation, digital dependence, value erosion, and the challenges facing national identity in the global information space. The article concludes with scientifically grounded recommendations aimed at strengthening youth worldview and critical thinking in the contemporary media environment.

YOSHLAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIGA MEDIA VA TARMOQLARNING TA'SIRI

Vaisbay Baxtiyarovich Madraximov

O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

h.f.d (PhD) dotsent

E-mail: mvaisbay@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: media, ijtimoiy tarmoqlar, dunyoqarash, yoshlar, globallashuv, raqamli madaniyat, psixologik taʼsir, algoritmlar, ommaviy madaniyat, axborot xavfsizligi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada media va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, ijtimoiy faolligi va qadriyatlariga koʻrsatayotgan taʼsiri ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Media kontentining psixologik, maʼnaviy va ijtimoiy mexanizmlari, xususan vizual obrazlar, ijtimoiy fikr, narrativlar, algoritmik taʼsir va maʼlumotlar oqimining yoshlar ongiga koʻrsatadigan bevosita va bilvosita taʼsirlari oʻrganilgan. Shuningdek, raqamli psixologiya, globallashuv, ommaviy madaniyat va axborot xavfsizligi omillari asosida yoshlar dunyoqarashining shakllanish jarayoni chuqur yoritilgan.

ВЛИЯНИЕ МЕДИА И СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЁЖИ

Вайсбай Бахтиярович Мадрахимов

Независимый исследователь

Национального университета Узбекистана

доктор философии (PhD), доцент

E-mail: mvaisbay@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: медиа, молодёжь, мировоззрение, цифровая культура, социальные сети, массовая культура, информативная безопасность.

Аннотация: В статье проводится углублённый анализ влияния медиа и социальных сетей на формирование мировоззрения молодёжи в условиях глобализации и цифровизации общества. Рассматриваются теоретические подходы восточных и западных исследователей, особенности восприятия информации молодым поколением, роль визуальных образов, алгоритмов соцсетей, цифровой социальной среды и медиа нарративов в изменении ценностных ориентаций и поведения. Особое внимание уделено психологическим и культурным аспектам воздействия медиа, проблемам фейковой информации, цифровой зависимости, трансформации идентичности и рискам для духовного развития личности. Представлены выводы и рекомендации по формированию устойчивых мировоззренческих ориентаций у молодёжи в условиях информационного давления.

Kirish. XXI asrda jamiyat taraqqiyoti medialashuv jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, axborot oqimining beqiyos tezligi, internetning global qamrovi va raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi natijasida yoshlar ongining shakllanishi tubdan o‘zgardi. Bugungi yoshlar dunyoni avvalgi avlodlardan farqli ravishda - virtual obrazlar, qisqa videolar, algoritmik axborot, sun‘iy intellekt tavsiyalari, ijtimoiy tarmoq me‘yorlari asosida qabul qilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Axborot xuruji avj olgan hozirgi davrda yoshlarning ongini tozalash va mustahkamlash eng ustuvor vazifadir.” Demak, yoshlar dunyoqarashi shakllanishiga media va ijtimoiy tarmoqlarning ta’sirini falsafiy, pedagogik, psixologik va sotsiologik nuqtayi nazardan chuqur o‘rganish bugungi ilmiy muhitda dolzarb vazifadir. Axborot oqimining tezligi, algoritmik tavsiyalar va qisqa formatlar yoshlar tafakkuriga nafaqat mazmun, balki shakl jihatdan ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi yoshlar dunyoni ko‘proq vizual va interaktiv “linza” orqali ko‘rmoqda; bu holat tanqidiy fikrlash, qadriyatlar iyerarxiyasi va identitet masalalarini kun tartibining markaziga olib chiqadi. Shunday sharoitda media savodxonlik, ma’naviy immunitet va milliy qadriyatlarni zamonaviy media tili bilan ifodalash O‘zbekiston uchun ham strategik zarurat bo‘lib bormoqda.” Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Hozirgi zamon yoshlariga bo‘lgan ishonchimiz ulkan. Biroq ularni zamonaviy tahdid va xavflardan, ayniqsa axborot xurujlaridan himoya qilish - har birimizning muqaddas burchimizdir.” (2022 yil 30 iyun, “Yoshlar kuni”dagi chiqishdan) Bu so‘zlardan anglashiladiki, yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda mediamakonning ijobiy va salbiy ta’sirini to‘liq o‘rganish - milliy mafkura, axborot xavfsizligi va ta’lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bugungi kunda media va dunyoqarash shakllanishining nazariy asoslari-dunyoqarash insonning borliqni anglash, baholash, qadriyatlarni tanlash va hayot tamoyillarini shakllantirish qobiliyatidir. U kognitiv, aksiyologik va emotsional qatlamlardan iborat. Media esa bu qatlamlarning har biriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Sharq va G‘arb olimlarining fikrlariga ko‘ra, media insonning ongini shakllantiruvchi eng kuchli tashqi omildir. McLuhan “vosita - bu xabarning o‘zi” deb, media vositasining o‘zi fikrga kuchli ta’sirini aytgan. Castells raqamli jamiyatda identitet o‘zgarishini e’tirof etadi. Ibn Sino esa tasvir, tovush va so‘zning inson ruhiga chuqur ta’sirini qadimdan urg‘ulagan. Media va tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashiga ko‘rsatadigan ta’siri bunda, yoshlar ongiga kognitiv (bilish), affektiv (hissiy), ijtimoiy va psixologik yo‘nalishlarda ta’sir ko‘rsatadi. Kognitiv darajada tafakkurning vizuallashuvi, algoritmik tanlov, qisqa fikrlash shakllanadi. Hissiy darajada esa emotsional videolar, motivatsion kontent va “like”larga qaramlik kuzatiladi. Ijtimoiy jihatdan esa yoshlar virtual jamiyatga qo‘shiladi, real ijtimoiy aloqalar qisqaradi. Psixologik ta’sir esa “virtual men” sindromi, o‘ziga ishonchsizlik, boshqalar bilan o‘zini taqqoslash va depressiyaga olib keladi. Media ijtimoiy rollarni yangidan ishlab chiqadi va jamiyatdagi qadriyatlarni o‘zgartiradi.

Ijobiy jihatlar-Media orqali yoshlar ilmiy ma'lumotga tez va erkin kirish imkoniga ega bo'lishadi. Onlayn ta'lim, elektron kutubxonalar, YouTube orqali ilm-fan resurslariga kirish mumkin. Madaniyatlararo muloqot kuchayadi, xorijiy tillarni o'rganish va dunyoqarashni kengaytirish imkoniyati ortadi. Bloggerlik orqali yoshlar ijtimoiy faollik ko'rsatishadi, muammolarni ko'tarib chiqishadi. Media yoshlarni o'z fikrini erkin ifoda etishga undaydi.

Salbiy jihatlar esa-Media muhitida feyk axborotlar, noto'g'ri ma'lumotlar tez tarqaladi. Bu esa yoshlar ongini buzadi, ularda haqiqatni farqlash ko'nikmalari susayadi. Virtual hayot ustunlik qilib, real hayotdagi ijtimoiy munosabatlar chetga chiqadi. Ommaviy madaniyat yoshlar estetikasi, axloqi va qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Moda, iste'molchilik, mashhurlik orzusi yoshlar ongida sun'iy ideallarni yaratadi. Psixologik jihatdan esa ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, yolg'izlik, depressiya, xavotir kuchayadi.

O'zbekiston tajribasi-O'zbekiston Respublikasi "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, axborot xavfsizligi to'g'risidagi qarorlar orqali yoshlarni salbiy ta'sirlardan himoya qilishga qaratilgan siyosat yuritmoqda. Media sohasida yoshlar uchun ijtimoiy, ma'naviy va ilmiy kontentlar ko'paymoqda. Yoshlar ishlari agentligi, bloggerlar, OAV orqali milliy qadriyatlar targ'ib qilinmoqda.

Dunyoqarash tushunchasining nazariy asoslari - bu kishining borliqni, jamiyatni, o'zini anglash va baholashiga asos bo'ladigan ichki fikrlar, e'tiqodlar, qadriyatlar tizimidir. U kishining qaror qabul qilishida, ijtimoiy munosabatlarida, harakatlarida aks etadi. Falsafa fanida dunyoqarash epistemologik (bilish), aksiyologik (qadriyatlar) va emotsional (hissiyot) qatlamlardan iborat. Akademik R. G'ofurov fikricha, "Har bir yangi axborot texnologiyasi dunyoqarashga yangicha talqin olib kiradi. Yosh ongidagi har bir o'zgarish - bu axborot oqimiga bo'lgan individual javobdir."

Media vositalarining asosiy ta'sir doiralari quyidagilardan iborat:

- Kognitiv ta'sir: Media — bu bilim, fakt, axborot vositasi. Ijtimoiy tarmoqlarda o'qilgan, ko'rilgan yoki eshitilgan har bir kontent ongda tasavvur, tushuncha va qarashlarni shakllantiradi.

- Affektiv ta'sir: Vizual materiallar, musiqiy fon, qisqa videolar yosh ongiga hissiy bosim qiladi.

- Aksiyologik ta'sir: Media iste'molchilik qadriyatlari, g'arbiy hayot tarzi, erkinlik va individualizmni singdiradi.

- Identitet va o'zlik: Virtual "men" va real "men" o'rtasidagi tafovut paydo bo'ladi.

Professor U. Xudoyqulov yozadi: "Bugungi media vositalari yoshni avvalo iste'molchi sifatida ko'radi. Media — bu bozor, inson esa mijoz"dir.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, yoshlar media va ijtimoiy tarmoqlar

vositasida axborot oladi, o‘z fikrini shakllantiradi, qarorlar qabul qiladi va dunyoni idrok etadi. Demakki, yoshlar ongining shakllanishida media vositalari hal qiluvchi ahamiyatga ega omilga aylangan. Ushbu holat, bir tomondan, ularning intellektual, madaniy va axborot savodxonligini kengaytirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, axborot manipulyatsiyasi, ommaviy madaniyat, virtual qarama-qarshilik, psixologik bosim va voqelikdan uzilish xavflarini keltirib chiqaradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yoshlar dunyoqarashi quyidagi mezonlar asosida media orqali shakllanmoqda:

- vizual va emotsional kontentlar orqali hissiy ta’sir;
- algoritmik axborot tanlovi orqali bilish jarayonining torayishi;
- global madaniyatga silliq singdirilish;
- feyk axborotlar fonida haqiqatni anglash qiyinchiliklari.

Bu esa yoshlar ongini himoyalashni, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishni, milliy qadriyatlar va axloqiy tamoyillar asosida ma’naviy immunitetni kuchaytirishni talab etadi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy ta’kidlaganidek: “Yaxshi tarbiyalangan kishi yaxshi axborotni qabul qiladi, yomonini esa rad eta oladi.” Demak, media vositalarini boshqarishdan ko‘ra muhimrog‘i — axborotni ongli qabul qila oladigan tarbiyalangan shaxsni shakllantirishdir. O‘zbek olimlari, jumladan R. G‘ofurov, U. Xudoyqulov, H.To‘laganov, A. Jo‘rayev kabi tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan ilmiy xulosalardan kelib chiqib aytish mumkinki, axborot makonini boshqarish emas, balki yosh ongini media ta’siridan himoya qilish strategik zaruratdir.

Shu asosda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Media – yosh ongini shakllantiruvchi kuchli vosita. Bu kuchni faqat taqiqlash emas, balki to‘g‘ri yo‘naltirish, tanqidiy tahlil qilish va shaxsiy immunitetni shakllantirish orqali samarali boshqarish mumkin.

2. Ommaviy madaniyat – qadriyatlar tizimiga tahdid soluvchi omil. Ayniqsa, g‘arbiy ideal obrazlarning targ‘ibi, iste’molchilik mafkurasi, “viral” kontentlar milliy axloqiy mezonlarga zid bo‘lishi mumkin.

3. Virtual hayot ustunligi – real hayotdan uzilish manbai. Internetga qaramlik, yolg‘izlik, psixologik tushkunlik va o‘zini baholashdagi buzilish yoshlar ruhiyatiga salbiy ta’sir qiladi.

4. Media savodxonlik – zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lishi zarur. Bu borada O‘zbekiston tajribasida “Media madaniyati”, “Axborot xavfsizligi”, “Tanqidiy fikrlash asoslari” kabi fanlarni ta’lim tizimiga joriy etish dolzarbdir.

5. Milliy qadriyatlarni media vositalari orqali ommalashtirish – yoshlar qalbiga o‘z millatini sevish, tarixiy xotira, ajdodlar merosi, zamonaviylik va qadimiylik uyg‘unligini singdirish imkonini beradi.

Shu boisdan, O‘zbekistonda quyidagi yondashuvlar taklif etiladi:

- Yoshlar media faolligini ma’rifiy kontent bilan boyitish;
- Blogerlar va media yaratuvchilar uchun ma’naviy mezonlar asosida tavsiyalar ishlab chiqish;
- Axborotlarni avtomatik tahlil qiluvchi algoritmlarni ishlab chiqish (feykni ajratuvchi tizimlar);
- “Media detox” markazlari, psixologik maslahatlar, internetga qaramlikni kamaytiruvchi ijtimoiy loyihalarni yo‘lga qo‘yish.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, yoshlar dunyoqarashini shakllantirish masalasi endilikda nafaqat ta’lim tizimi yoki oilaviy tarbiyaning, balki milliy xavfsizlik, ma’naviyat va taraqqiyot masalasi sifatida qaralishi kerak. “Media va tarmoqlar yoshlar dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy maydonga aylandi. Ijobiy imkoniyatlar—bilimga kirish, fuqarolik faolligi, global muloqot—salbiy oqimlar—feyk, iste’molchilik ruhi, psixologik bosim—bilan yonma-yon kechmoqda. Muvozanatning kaliti: tanqidiy fikrlash, media savodxonlik va axloqiy me’yorlar asosidagi ma’naviy immunitetdir. Ta’lim, oila va OAV hamkorligida qisqa video, podkast va infografika orqali milliy qadriyatlarni ommalashtirish esa mazkur jarayonni barqaror yo‘lga qo‘yadi.” Agar biz yoshlarni axborot to‘fonida yo‘qotmasligini istasak, u holda axborotni boshqarish emas, balki ongni tarbiyalash asosiy vazifa sifatida kun tartibidan joy olishi lozim. O‘zbekistonning yoshlar siyosati, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha islohotlar yoshlarning globallasuv sharoitida o‘z pozitsiyasini topishi, sog‘lom dunyoqarashga ega bo‘lishi uchun muhim omillardir. Shunday ekan, media va tarmoqlar ta’sirini chuqur ilmiy o‘rganish, yoshlarning ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashini mustahkamlash va ularni salbiy axborotlar oqimidan himoya qilish — jamiyat taraqqiyotining eng muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. McLuhan M. Understanding Media. – New York, 1964.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford, 2010.
3. Habermas J. The Structural Transformation of the Public Sphere. – MIT Press, 1991.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T., 2008.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T., 2022.
6. “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, 2016.
7. Raqamli O‘zbekiston – 2030 davlat strategiyasi.
8. Jenkins H. Convergence Culture. – New York, 2006.
9. Boyd D. It’s Complicated: The Social Lives of Networked Teens. – Yale University Press, 2014.

10. O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi materiallari, 2023.